O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR

mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami

(2024-yil 17-18-may)

(2-qism)

JIZZAX-2024

“Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali, 2024-yil 17-18-may. 461-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globallashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur’atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e’tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma’ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas’ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O‘ralov A.I.

Tahrir hay’ati a’zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., t.f.f.d.(PhD), dotsent Abdumalikov A.A., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), dots. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dotsent Alibayev S.X., p.f.f.d. (PhD) Halimov O‘.H., p.f.f.d.(PhD), dotsent Karshiyev A.A., f.f.f.d.(PhD), dotsent Sindorov L.K., t.f.f.d. (PhD), dotsent Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD), dotsent Mustafaqulov M.A., f.f.f.d. (PhD) Alibekov D.A.., f-m.f.f.d. (PhD) Sharipov X.F., ps.f.f.d.(PhD) Norbekova B.Sh., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Qayumov O.A., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma’ruza tezislarining mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

salohiyatni oshirish tashabbuslari va jamoatchilikni jalb qilish sa'y-harakatlarini o‘z ichiga olgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi.

Xulosa:

Ota-ona qaramog‘isiz bolalarni oilaga moslashtirish kontekstida g‘amxo‘rlik falsafasi har bir bolaning farovonligi, qadr-qimmati va huquqlarini ta'minlashga qaratilgan asosiy majburiyatni ifodalaydi. Individual qo‘llab-quvvatlash, barqarorlik, travmadan xabardor bo‘lgan parvarish va madaniy kompetentsiya tamoyillarini o‘zlashtirib, biz bolalarning rivojlanishi va o‘z potentsialini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga yordam beradigan tarbiyalanuvchi oila muhitini yaratishimiz mumkin. Oldinga qarab, ushbu zaif bolalarning yaxlit ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan va ularning oila va jamiyat sharoitlariga qo‘shilishi va ishtirokini rag‘batlantiradigan tadqiqot, siyosat va amaliyot tashabbuslarini ilgari surishni davom ettirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bowlby, J. (1982). Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment (2nd ed.). Basic Books.

2. Dozier, M., & Rutter, M. (2008). Challenges to the Development of Attachment Relationships Faced by Young Children in Foster and Adoptive Care. In J. Cassidy & P. R. Shaver (Eds.), Handbook of Attachment: Theory, Research, and Clinical Applications (2nd ed., pp. 698-717). Guilford Press.

3. Selman, P. (2013). The Policy and Practice of Child Placement and Adoption: An International Perspective. Palgrave Macmillan.

4. United Nations General Assembly. (1989). Convention on the Rights of the Child. https://www.unicef.org/child-rights-convention.

XX ASRNING 20-80 YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-MAISHIY INFRASTRUKTURA MUASSASALAR FAOLIYATI TARIXIDAN

t.f.f.d., dots. Nasirov Bunyod Uralovich,
Ortiqov Olim Hamidovich
O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali
n.bunyod2020@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy-maishiy infrastrukturalarning inson kundalik hayotida tutgan o‘rni, xorijiy davlatlarda bu masalaga bo‘lgan e’tibor, uning tadqiqotlarda yoritilishi, sovet hukumati yillarida O‘zbekistonda aholiga maishiy xizmat faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi, shu o‘rinda umumiy ovqatlanish tizimidagi ahvol, moddiy-texnik ta’minot, muammolar hamda aholining bu borada ehtiyoji yoritilgan.

O‘zbekiston tarixi bilan shug‘ullangan xorijiy tadqiqotchilar ham ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga alohida e’tibor bergan. G‘arb sivilizatsiyasi ijtimoiy-madaniy tajribasiga ega bo‘lgan xorijiy tadqiqotchilar sovet adabiyotlarida faqat qayta qurish davridagina e’tibor berilgan muammolarni oldindan ko‘ra bildilar.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-maishiy, infrastruktura, sovet hukumati, kadrlar qo‘nimsizligi, umumiy ovqatlanish, Ittifoq.

Hozirgi zamon tarix fanida insonga, uning ehtiyojlariga, ijtimoiy-psixologik holatiga e’tibortobora kuchayib bormoqda. Xorijiy gumanitar fan yo‘nalishlarida ham aholining kundalik hayotini – mehnat va turmush sharoitini, hayot tarzini, moddiy va ma’naviy madaniyati elementlarini tadqiq etuvchi ijtimoiy tarix sohasi kengayib bormoqda. Biz buni bugungi kunda kundalik hayot tarixi muammolari bo‘yicha o‘tkazilayotgan xalqaro konferensiya va kongresslarda bu masala muhokama predmetiga aylanayotganligida ham ko‘rishimiz mumkin [1].

Umuman, ijtimoiy-maishiy infrastruktura muassasalari rivojlanishi aholining turmush darajasiga va tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Aholi turmush darjasining tarkibiy qismi sifatida ikki xil vazifani bajaradi. Birinchidan, inson ehtiyojlarini qondirsa, ikkinchidan, inson rivojlanishiga sharoit yaratadi.

Ammo, sovet hokimiyati yillarida ehtiyojlar shakllanishi, ularni amalga oshirish sharoitlari va mexanizmlari ijtimoiy-siyosiy sabablar tufayli yetarli darajada tadqiq etilmagan. Iste’molga “ishchi kuchi ishlab chiqarish” chorasi sifatida qaragan totalitar tuzum nafaqat insonning ijtimoiy ehtiyojlari va manfaatlariga mensimay qaradi, balki tarixda “inson o‘lchovi”ga ham bepisandlik bilan munosabatda bo‘ldi.

O‘zbekiston SSR tashkil topganidan so‘ng aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida asosan 3 ta tizim – O‘zbekiston hunarmandchilik kooperatsiyasi kengashi, Mahalliy sanoat xalq komissarligi hamda O‘zbekiston SSR Nogironlar kooperatsiyasi kengashi tomonidan aholiga xizmat ko‘rsatila boshlandi [2].

Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish masalasiga sovet hokimiyatining dastlabki yillarida alohida e’tibor qaratilmadi. Ya’ni, bu soha kommunal xo‘jalik, madaniy muassasalar faoliyatida uchragan muammolar misolida ko‘rib chiqilgan. Sohaga jiddiy e’tibor berilmaganidan u yillar davomida bir necha idoralar tarkibida bo‘lib kelgan, faqatgina 1962 yilda O‘zbekiston SSR Vazirlar kengashi xuzurida Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish Bosh boshqarmasi, 1966 yilda esa alohida Vazirlik sifatida tashkil etilgan. 1960 yillarda O‘zbekiston SSRda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish yo‘nalishlari 16 ta vazirlik va yuqori idoralar tarkibida amalga oshirilgan [3].

Mazkur salbiy holatlardan kelib chiqib SSSR Vazirlar kengashi 1968 yil 27 avgustda “Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarni moddiy-texnik ta’minlashni yaxshilash to‘g‘risida”gi qarorni tasdiqladi. Qarorda Savdo va Yengil sanoat vazirliklari zimmasiga maishiy mashina va uskunalar uchun zarur extiyot kismlar ishlab chiqarish, maishiy korxonalarni ular faoliyati uchun zarur sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, kir yuvish va kimyoviy tozalash korxonalarini zamonaviy uskunalar bilan ta’minlash vazifalari yuklatildi. Shuningdek, ushbu qaror asosida Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish vazirligi qoshida Moddiy-texnik ta’minlash bosh boshqarmasi tashkil qilindi. Mazkur boshqarma 1969 yil may oyidan faoliyat yurita boshladi va Qoraqalpog‘iston ASSR, Andijon, Namangan hamda Buxoro kabi viloyatlarda uning tarkibiy bo‘linmalari tashkil qilindi [4].

Biroq bu qaror bilan maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalarini kerakli uskunalar bilan ta’minlash yaxshilanib qolmadi. 1971 yilda respublikaning qator viloyatlarida mavjud uskunalar o‘rnatilmasdan saqlanayotgani aniqlangan. Xususan, Toshkent

shahrida 151 dona, Samarqandda 67 dona va Buxoroda 157 dona uskuna o‘rnatilmagan. Bu kabi holatlar, ayniqsa, Sirdaryo, Namangan va Buxoro viloyatlarida yuqori ko‘rsatkichda bo‘lgan [5].

Umumiy ovqatlanish muassasalari faoliyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, XX asrning 40-yillarida O‘zbekistonda aholiga umumiy ovqatlanish yo‘nalishidagi xizmatlar “O‘zbekhunarkengash”, “O‘znogironlarhunar kengashi”, “O‘zbekbirlashuv”, Mahalliy sanoat xalq qo‘mitasi, Qurilish materiallari xalq qo‘mitasi, harbiy savdo, O‘zmaxsus savdo, bosh savdo, Baliq ovi matlubot uyushmasi, temir yo‘l bufet, daryo floti, matlubot uyushmasi va boshqa ko‘plab idoralar tomonidan ko‘rsatilgan [6].

Keyingi davrda ham aholiga umumiy ovqatlanish [7] yo‘nalishida xizmat ko‘rsatish ishlari bir necha vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirildi. Hukumat tomonidan sohani rivojlantirish oid bir qancha me’yoriy hujjatlar hayotga tadbiq etilgan.

XX asrning 60-yillariga kelib, respublikadagi bir qancha viloyatlarda tizimni rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, yangi binolar barpo etish hamda sohaga oid bir qancha muammolarni muammolarini bartaraf etishda joylardagi mahalliy hukumat rahbarlarining e’tiborsizliklari oqibatida O‘zbekistondagi zavod va fabrikalardagi oshxonalarda bir o‘ringa me’yor bo‘yicha 6 kishi o‘rniga, 11 kishi to‘g‘ri kelgan [8].

Respublikada 1971-1975 yillarda umumiy ovqatlanish sohasini rivojlantirish va holatini yaxshilashga mo‘ljallangan tadbirlar rejasida bir qator holatlar yoritib o‘tilgan. Unda O‘zbekistonda 1970 yillarda aholi uchun oshxona, kafe, restoranlarni hamda tashkilotlar, o‘quv yurtlar, sanoat korxonalarda ham ovqatlanish tizimini qoniqarsiz darajada ekanligi, belgilangan me’yorlar bo‘yicha 1000 nafar ishchiga 180-250 o‘rin to‘g‘ri kelishi lozimligi, ammo ko‘pgina o‘quv yurtlari va korxonalarda bu me’yor talabga javob bermayotganligi qayd etilgan [9]. Ta’kidlab o‘tish lozim, Toshkent temir yo‘l transporti muhandislari institutida, pedagogika institutida, rus tili va adabiyoti institutida hamda Farg‘ona politexnika institutlarida -100 o‘rinli, SamDU da -250 o‘rinli va boshqa o‘quv yurtlarida ovqatlanish maskanlari barpo etilishi natijasida, o‘rindiqlar soni 4790 taga oshdi. Lekin, 1000 nafar talabaga me’yor bo‘yicha 180 o‘rindiq emas, balki 98 ta to‘g‘ri kelgan [10]. Tadqiqotlarda ham bu masalaga oid muammolar e’tirof etildi [11].

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Sovet hukumati yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy maishiy muassasalar faoliyati bo‘yicha quyidagi xulosalarga kelindi:

- birinchidan, maishiy xizmat ko‘rsatish tizimida amalga oshirilgan o‘zgarishlarda mahalliy aholi ehtiyojlari, iqlimi, tug‘ilish miqdori hamda hududlarning mahalliy o‘ziga xosligi hamma vaqt ham hisobga olinmagan;

- ikkinchidan, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishning ba’zi turlari o‘ndan ortiq vazirliklar tomonidan amalga oshirilgan. Bunday holat maishiy xizmat narxining va xizmat sifatining turlicha bo‘lishiga olib kelgan;

- uchinchidan, turli boshqaruv tashkilotlari yig‘ilishlarida ijtimoiy-maishiy muassasalar muammolari ko‘tarilgan bo‘lsa-da, amalda ushbu qarorlar ijrosi ta’minlanmagan, qator holatlarda muammoni bartaraf etish o‘sha muassasa rahbarining zimmasiga yuklatilgan;

- to‘rtinchidan, umumiy ovqatlanish muassasalarini tashkil etishda aholi va korxonalarda xodimlarning, o‘quv yurtlarida talabalarning miqdoriga yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Shuningdek, ularning faoliyati uchun kerakli jihozlar bilan ta’minlash, sanitariya holatlarida kamchiliklar uchrab turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Репина Л.П. Социальнаая история и историческая антропология: новейшие тенденции в современной британской и американской медиевистике //Одиссей. 1990. М.,1990.С.167-181; ва бошқалар.
2. Стасько В.Н. Служба быта- в центре внимания. – Ташкент: Узбекистан, 1969. – С.7.
3. Валиев А. Важные задачи службы быта. // Экономика и жизнь. – Ташкент, 1969. №9. – С.86-88.
4. Собчак А.А. Руководства местных Советов депутатов трудящихся бытовым обслуживанием населения (по материалам УзССР) Дисс… канд.юрид.наук. – Ташкент, 1971. – С.116-117.
5. O‘zR Ilmiy-texnik va tibbiyot hujjatlari MDA, 173-fond, 1-ro‘yxat, 99-ish, 131-varaq.
6. Ўз МА, Р.91- фонд, 11-рўйхат, 10-иш, раqамсиз вараq; ЎзР МДА, Р-91- фонд, 11-рўйхат, 10-иш, 53- вараq.
7. Umumiy ovqatlanish korxonalariga quyidagilar kirgan: fabrika-kuxnya, fabrika- tayyorlov joyi, oshxonalar (tayyorlov, tayyorlashgacha, tarqatuvchi va boshqalar), restoranlar, vagon-restoranlar, umumiy ko‘rinishdagi kafelar, maxsus kafelar (yoshlarniki, bolalarniki, muzqaymoqli, qandolatchilik, kafe avtomat) : umumiy yemakxonalar, maxsus yemakxonalar (kabobli, kotletli, sosiskali, chuchvarali, somsali, osh, cheburekli, pirojkali, quymoqli, ponchikli, buterbrodli) : chayxonalar, choy ichish joylari, barlar (pivoli, vinoli, kokteyl bari, kokteyl xolli, sutli), kafeteriy (magazin qoshidagi kafe bo‘limi), bufetlar, kupe-bufetlar, qandolatchilik magazinlari, yarim mahsulotlar tayyorlashga mo‘ljallangan maxsus sexlar, qandolatchilik, konditerlik va un mahsulotlaridan.
8. O‘z MA, R.91- fond, 11-ro‘yxat, 298-ish, 59 - varaq.
9. O‘z MA, R.91- fond, 11-ro‘yxat, 425- ish, 2-3- varaqlar.
10. O‘z MA, R.91 - fond, 11-ro‘yxat, 922 -ish, 36 - varaq.
11. Nasirov B. U., Boltaeva M. J. Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. – 2021. – Т. 12. – С. 5834-5841.
12. Насиров Б. XX АСРНИНГ 30-80 ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА УМУМИЙ ОВҚАТЛАНИШ ТИЗИМИ ТАРИХИДАН //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2022. – Т. 5. – №. 1.
13. Nasirov B. Catering In Uzbekistan From The History Of The System //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2021. – Т. 3. – №. 02. – С. 11-15.
14. Носиров Б. Совет даврида Ўзбекистонда умумий овқатланиш тизими фаолияти хусусида //Взгляд в прошлое. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

15. Насыров Б. У. История деятельности бань в восточных странах //International scientific review. – 2016. – №. 4 (14). – С. 62-66.

16. Носиров Б., Носирова Ф. СИСТЕМА БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ: ГЕНЕЗИС И ПРОБЛЕМЫ ПРАКТИКИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН В 60-80 ГОДЫ ПРОШЛОГО ВЕКА) //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 1-4. – С. 41-46.

17. Носиров Б. Механизмы и противоречивое развитие сферы бытового обслуживания в Узбекистане 20-40 годах XX века //Культура. Духовность. Общество. – 2014. – №. 11. – С. 158-163.

18. Носиров Б., Носирова Ф. СИСТЕМА БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ: ГЕНЕЗИС И ПРОБЛЕМЫ ПРАКТИКИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН В 60-80 ГОДЫ ПРОШЛОГО ВЕКА) //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2017. – №. 1-4. – С. 41-46.

19. Носиров Б. ИЖТИМОИЙ-МАИШИЙ ИНФРАСТРУКТУРАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ЭЪТИБОРГА ОЛИНМАГАН ОМИЛЛАР (СОВЕТ ДАВРИДА): Носиров Бунёд, Тариҳ фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент. Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети Жиззах филиали //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 4. – С. 8-12.

20. Nasirov B. HISTORICAL SCIENCES //Главный редактор научно-исследовательского журнала «International scientific review», Вальцев СВ. – 2016. – Т. 4. – С. 61.

21. Nasirov B., Muborak K., Moxina K. ACTIVITY OF CATERING INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN AT THE END OF THE 19TH-EARLY 20TH CENTURY: CHANGES AND ATTITUDES //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 230-240.

22. Uralovich N. B. et al. XIZMAT KO ‘RSATISH TIZIMIDAGI TRANSFORMATSION JARAYONLAR:(XIX asr oxiri-XX asr boshlarida umumiy ovqatlanish tizimi misolida) //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 359-363.

PLATON FALSAFASIDA G‘OYALAR DUNYOSI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Xosilmurodov Islom Xamitolim o‘g‘li,
Tolliboyev Dilshod Muhammadiyevich
O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada faylasuf Platon qarashlaridagi g'oyalar dunyosi tushunchasiga to‘g’risida ma'lumot berilgan. Uning ruh haqidagi fikrlari, shu jumladan jamiyatning ideal mulk turlari va bular haqidagi o'ziga xos klassifikatsiyasi ushbu maqolada yoritilgan.